

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 70 (1669), 2026-yil 10-aprel, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news




yuz.uz\_news



## BUYUK O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING OLTIN DAVRIGA HAMOHANG BARPO ETILAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 9-aprel kuni Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga tashrif buyurdi va Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi.



Amir Temur xiyobonida bayramona shukuh kezadi. Bahor yomg‘iridan keyingi musaffo havodan o‘pkani to‘ldirib nafas olasiz. Yonatrofda ko‘kka bo‘y cho‘zgan daraxtlar, yashil maydon va turfa gullar. Uzoq-yaqindan yangi qad rostlagan binolar ko‘zga tashlanadi. Shular haqida o‘ylab, ulug‘ ajdodimiz bizga meros qoldirgan ezgu amallar — yashil olam yaratish,

bunyodkorlik va adolatli tizim ila tinchlikni mustahkamlash borasidagi ishlar davom etmoqda, deysiz qat‘iyat bilan. So‘ng beixtiyor shonli tarixga munosib tarzda yuksalib borayotgan yangi O‘zbekistondagi islohotlar ko‘z oldingizga keladi. Xayolingizda ana shu shukuhga hamohang bo‘lgan she‘r aylana boshlaydi:

“Muzofotlar uyg‘onmoqda Temurxonning Bayrog‘ining hilpiragan shamolidan”.

Darhaqiqat, bugun yangi O‘zbekiston shabadasi olis muzofotlarga ham kirib bordi. Bu xususida keyinroq yana to‘xtalamiz.

Prezidentimiz Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga tashrif buyurib, ulug‘

vatandoshimiz, mashhur davlat arbobi, yengilmas sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohbiqiron Amir Temur haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Amir Temur siymosi va temuriylar davri milliy davlatchiligimiz tarixi, xalqimizning shonli o‘tmishi va bugungi taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega.

Zero, Sohbiqiron bobomiz mana shu yurt, xalqimiz, millatimiz manfaati uchun bor kuch-qudrati, salohiyati, umrini baxshida etgan. Milliy davlatchiligimiz tarixida qoldirgan o‘chmas o‘rni, xalqimizning ilm-fan va madaniyatini yuksaltirish borasidagi islohotlari, tashabbuslarini sanab, adog‘iga yetib bo‘lmaydi. U davrdagi bunyodkorlik,

adolatparvar davlatchilik siyosati hali-hamon tillarda doston, dunyo uchun ibrat namunasi. Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur hukmronligi yillari, shubhasiz, o‘zbek davlatchiligining oltin davridir.

Davomi 2-betda

## “AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TAMADDUNINING JAHON TARIXI VA MADANIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Avvalo, buyuk davlat arbobi, yengilmas sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohbiqiron Amir Temur va temuriylar tarixi hamda merosini o‘rganish va targ‘ib etishdek muhim ishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan siz, azizlarni bugungi xalqaro ilmiy konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu anjumanda dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan taniqli olimlar — professor va akademiklar, nufuzli universitetlar hamda ilmiy markazlarning namoyandalari, ijodkor ziyolilar, mashhur muzei va kutubxonalarining yetakchi xodimlari, ko‘plab ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etayotgan xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga jahon miqyosida qiziqish hamda e‘tibor tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Konferensiya Amir Temur tavalludining 690-yilligi yurtimizda keng nishonlanayotgan kunlarda O‘zbekistonning uch ming yillik betakror ilmiy-madaniy meros durdonalarini o‘zida mujassam etgan Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib o‘tayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Mazkur ilmiy forum o‘lkamiz tarixidagi ulug‘vor va yorqin bosqichni tashkil etadigan

Ikkinchi Uyg‘onish davri — temuriylar Renessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg‘in muhokamalar o‘tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Aziz do‘stlar!

Olis XIV asrda, g‘oyat murakkab bir zamonada hozirgi O‘zbekiston hududida milliy davlatchilikni qayta tiklab, Vatan ozodligi, yurt tinchligi va obodligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan buyuk ajdodimiz Amir Temur asos solgan qudrati saltanat jahon sivilizatsiyasi tarixida qanday o‘chmas iz qoldirgani sizlarga yaxshi ma‘lum.

Bu haqda gapirganda, dunyodagi o‘nlab davlatlar hududida Amir Temur va temuriylar davriga oid me‘moriy obidalar hozirga qadar saqlanib kelayotgani, turli mintaq va mamlakatlarda bu ulug‘ shaxs hamda uning sulolasiga bag‘ishlab ko‘plab badiiy, ilmiy va tasviriy asarlar yaratilganini ta‘kidlash lozim.

Ma‘lumki, Amir Temur ota yurti Shahrisabzda o‘zi bunyod ettirgan go‘zal me‘moriy obida — Oqсарoy peshtoqiga “Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan so‘zlarni yozdirgan edi.

Bu hikmatli so‘zlar bugungi kunimiz uchun ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Chunki

tinchlik va adolat hukm surgan joydagina ilmiy-ma‘rifat, san‘at, adabiyot va madaniyat taraqqiy topadi.

Shu ma‘noda, temuriylar Renessansi nafaqat Turon o‘lkasi, balki butun Sharq olamining ilm-fani va madaniy ravnaqiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib, yangi ma‘naviy yuksalish davrini boshlab bergani bejiz emas.

Ushbu sulolaning mashhur namoyandalari bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek, Boysunqur Mirzo, Ibrohim Sulton, Sulton Husayn Mirzo, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va boburiylarning ilmiy kashfiyotlari, yetuk badiiy asarlari ana shu noyob madaniy fenomen mahsuli sifatida vujudga kelganini jahon olimlari keng e‘tirof etadilar.

Yangi O‘zbekistonda Amir Temur va temuriylar merosining umumbashariy sivilizatsiya tarixidagi o‘rni hamda ahamiyatini o‘rganish, uni yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Amir Temurning 690 yilligi munosabati bilan alohida qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatga binoan har yilning aprel oyi mamlakatimizda Amir Temur oyligi deb e‘lon

qilinishi, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy konferensiyalar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Bugungi anjuman ham ana shu yo‘ldagi yana bir amaliy qadam bo‘lib, biz O‘zbekistonning haqiqiy do‘stlari bo‘lgan sizlar kabi zahmatkash olim va tadqiqotchilar bilan temuriylar Renessansini, umuman, boy merosimizni chuqur o‘rganish, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-ma‘naviy islohotlar bilan jahon jamoatchiligini yanada keng tanishtirish borasidagi hamkorlikni izchil davom ettiramiz.

Anjuman davomida sizlar xalqimiz dahosi bilan yaratilgan yurtimizdagi tarixiy-me‘moriy obidalar, madaniy yodgorliklar, nodir qo‘lyozma va kitob fondlari bilan yaqindan tanishib, ularni tadqiq etish, asrash va targ‘ib etish bo‘yicha qimmatli taklif hamda tavsiyalaringizni bildirasiz deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli faoliyatingizda yangi yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## ELEKTRON TIJORAT IQTISODIYOTNING MUHIM DRAYVERLARIDAN BIRIGA AYLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev elektron tijoratni rivojlantirish va bond omborlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi sakkiz yilda mamlakatimizda elektron tijorat hajmi 20 barobar o‘stib, 1,3 milliard dollarga yetdi. Raqamli platformalar soni 120 tadan ziyodni tashkil etmoqda. O‘zini o‘zi band qilish tartibining kengaytirilgani, litsenziyalash va soliqlar tortishning soddalashtirilgani hisobiga sohada 750 mingga yuqori daromadli ish o‘rni yaratilgan, byudjetga esa har yili 200 milliard so‘m qo‘shimcha soliq tushumlari ta‘minlanmoqda.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘pligi ta‘kidlandi. Xususan, O‘zbekistonda elektron tijoratning chakana savdodagi ulushi 4-4,6

foizni tashkil etib, jahondagi o‘rtacha 22 foizlik ko‘rsatkichdan 5 barobar kam ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Mamlakatimizda ushbu ulushni 9-11 foizga yetkazish uchun yetarli salohiyat mavjud.

Taqdimotda elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirishda import tovarlarini bojxona to‘lovlari va soliqlarini kechiktirilgan tartibda to‘lash sharti bilan bojxona nazorati ostida saqlashga mo‘ljallangan maxsus ombor — bond omborlar tashkil etish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Davomi 2-betda

## SO‘XDAGI YANGILANISHLAR HUDUDNING IQTISODIY FAOLLIGI OSHIB BORAYOTGANINING AMALIY IFODASIDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Ta‘kidlanganidek, avvallari So‘x yetib borish qiyin, transport va logistika imkoniyatlari cheklangan, iqtisodiy aloqalari zaif hududlardan biri edi. So‘nggi yillarda mintaqaviy hamkorlik va qat‘iy siyosiy iroda tufayli bu hududni kompleks rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Yo‘llar ochildi, chegaradan o‘tish tartiblari yengillashtirildi, tadbirkorlik uchun sharoitlar yaxshilandi, zamonaviy bog‘cha, maktab, poliklinika va uy-joylar barpo etildi.

Bugungi kunda So‘xdagi 25 ta mahallada 88,6 ming aholi yashaydi. Hududda 29 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 33 ta maktab, 2 ta o‘rta maxsus ta‘lim muassasasi, 14 ta sog‘liqni saqlash muassasasi va 2 ta madaniyat obyekti

faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘tgan yilning o‘zida 13 ming 921 ta ish o‘rni yaratildi, 1 ming 667 ta oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Umuman, So‘xdagi o‘zgarishlar shunchaki infratuzilma yangilanishi emas, balki hududning iqtisodiy faolligi oshgani, aholi ishonchi mustahkamlangani va yoshlar uchun imkoniyatlar kengayganining amaliy ifodasidir. Bugungi So‘x asta-sekin mintaqaviy iqtisodiy tizimga qayta qo‘shilmoqda.

Shu bilan birga, tumanda kambag‘allik darajasi 7,9 foiz, ishsizlik 5,5 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkichlar hali ham respublika o‘rtacha darajasidan yuqori ekani ko‘rsatib o‘tiladi.

Davomi 2-betda

**TAMADDUN tafakkuri**

Ushbu sonda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi intellektual platforma sifatida bo‘y ko‘rsatgani, markaz bunyod etilgan maskanning tarixiy asoslari hamda majmuaga tashrif buyuruvchi bolajonlar uchun yaratilgan imkoniyat va sharoitlar haqida qiziqarli maqolalar bilan tanishishingiz mumkin.

▶ 3

**Sohibqiron Amir Temur qayerda bo'lmasin, bog'u rog'lar barpo etishga, har bir qarich yerni obod qilishga katta ahamiyat qaratgan. Ana shu bunyodkor an'analarning uzviy davomi sifatida Amir Temur xiyobonida ham obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.**

**Tadbir doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xiyobonda ko'chat ekdi va Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurdi.**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

# BUYUK O'ZBEK DAVLATCHILIGINING OLTIN DAVRIGA HAMOHANG BARPO ETILAYOTGAN YANGI O'ZBEKISTON

## Boshlanishi 1-betda

Ayni kunlarda mamlakatimizda Amir Temur bobomizning 690 yilligi katta bayram, shodiyona sifatida keng nishonlanayotgani, qutlug' sana munosabati bilan ko'plab ma'naviyat-ma'rifiy, ilmiy va madaniy tadbirlar o'tkazilayotganida alohida ma'no mujassam.

Birinchidan, Amir Temur shaxsiyati xalqimiz uchun cheksiz faxr-iftixor, jasorat, fidoyilik namunasidir. Binobarin, Sohibqiron bobomiz XIV asrda, g'oyat murakkab davrda O'zbekiston zaminida milliy davlatchilikni qayta tiklab, vatan ozdligi yo'lida ulkan jasorat ko'rsatgan buyuk tarixiy shaxsdir. U asos solgan qudratli saltanat jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan. Sohibqironning hayoti va faoliyati salkam yetti asrdan buyon dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Turli mamlakatlarda Amir Temur va temuriylarga bag'ishlab minglab badiiy, ilmiy va san'at asarlari yaratilgan, bu ishlar bugun ham davom etayotgani uning tarixiy siyosiy va merosi nechog'liq beqiyos ekanidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, Amir Temurning davlat boshqaruvidagi adolati, bunyodkorlik salohiyati, kambag'al-miskinlarga marhamati, o'sha davrdagi dunyoning yirik saltanatlarini bilan olib borgan diplomatiyasi dunyo davlatchiligi, tinchligi va taraqqiyoti uchun katta tajriba, mislsiz ibrat maktabidir.

Xususan, Amir Temurning "Kuch — adolatda", "Adolat bilan jahon gulshani obod bo'ladi" degan dono o'g'itlari bugun yurtimizda ijtimoiy davlat barpo etish, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan keng ko'lami islohotlarda o'ziga xos dastur va amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat ishlari uchun katta tajriba, mislsiz ibrat maktabidir.

Tadbir doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xiyobonda ko'chat ekdi va Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurdi.

Muzej Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan zamonga mos tarzda rekonstruksiya qilindi. Ta'bir joiz bo'lsa, yangi O'zbekistondagi ilmiy, ma'naviy, iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga mos ravishda yangicha qiyofaga keltirildi. Rekonstruksiya ishlarida dunyodagi mashhur muzeylarning eng ilg'or tajribalari qo'llanildi. Qolaversa, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, yangilangan Imom Buxoriy majmualarida to'plangan tajribalarimiz asosida jihozlanib, raqamlashtirildi. Yangi ekspozitsiya yaratildi. Buning uchun dunyoning turli o'lkalarga tarqalib ketgan, Temur va temuriylar davriga oid noyob eksponatlar olib kelindi. Muzeining birinchi qavatida "Buyuk Sohibqiron — Ikkinchi Renessans asoschisi" bo'limi tashkil etilgan. Tashrif buyuruvchilar Amir Temur davri va temuriylar tarixi bilan yanada keng tanishishi uchun ikkinchi qavatda sun'iy intellekt va "aqlii" texnologiyalar asosidagi interaktiv ekspozitsiyalar, 3D formatdagi eksponatlar hamda xaritalar o'rin olgan.

Yuqorida ta'kidlanimizdek, yangi O'zbekiston shabadasida olis muzofotlarga ham kirib bordi. Xalqimiz ana shu o'sish va o'zgarishlar nafasiga munosib tarzda uyg'olib, dunyoga tiyrak nigoh bilan qaray boshladi. Bunday farahbaxsh tuyg'u ila muzeyni tomosha qilish kishiga o'z-gacha zavq beradi. Muzej kirishidagi asosiy zal sathiga xarita chizilgan. Unda Amir Temur asos solgan davlat o'z aksini topgan. Birinchi qavatda "Buyuk Sohibqiron — Ikkinchi Renessans asoschisi" bo'limi bilan tanishib, ushbu xarita — ulug' ajdodimizning saltanati

Yaqin shuning uchun keyingi yillarda mamlakatimizda Amir Temur va temuriylar merosini chuqur o'rganish, uni yurtimiz va xalqaro miqyosda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda Amir Temurning 690-yilligini nishonlash to'g'risida alohida qaror qabul qilinib, keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

# TEMURIYLAR RENESSANSI MOHIYATI CHUQUR O'RGANILADI



## Xalqaro konferensiya

**Markaziy Osiyo azaldan ilm-fan, san'at va falsafa markazi bo'lib, butun dunyoga ta'sir ko'rsatgan sivilizatsiya asoslarini shakllantirgan. Bugungi kunda bu salohiyat keng ko'lami loyiha — O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida mujassam bo'lib, u nafaqat tarixiy osori atiqalarni saqlaydi, balki ilm-fan, ta'lim va ma'naviy taraqqiyot uchun jonli platforma bo'lib xizmat qiladi.**



Ayni kunlarda yurtimizda buyuk davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiyi Amir Temur tavalludining 690-yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu yubiley sana nafaqat tarixiy xotira, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va mamlakat madaniy diplomatiyasini ilgari surishning muhim omili sifatida ko'rilmoqda.

Yubiley tadbirlari doirasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xalqaro muloqotning asosiy maydoni vazifasini o'tamoqda. Kecha

bu majmuada "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya boshlandi. Anjuman mavzuni har tomonlama o'rganish, shuningdek, kelgusida xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik uchun barqaror platformani shakllantirishni maqsad qilgan.

Konferensiya avvalida davlatimiz rahbarining xalqaro ilmiy konferensiya qatnashchilariga yo'llagan tabrigini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Mazkur nufuzli tadbirda Fanlar akademiyasi prezidenti, O'zbekiston Qahramoni Shavkat

Ayupov, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Oksford Islom tadqiqotlari markazi direktori Faxon Nizomiy, shuningdek, dunyoning 20 dan ortiq mamlakatidan 300 nafardan ziyod olim, ekspert, diplomat va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

"Konferensiya Amir Temur tavalludining 690 yilligi yurtimizda keng nishonlanayotgan kunlarda O'zbekistonning uch ming yillik betakror ilmiy-madaniy meros durdonalarini o'zida mujassam etgan Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib o'tayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Mazkur ilmiy forum o'lkamiz tarixidagi ulug'vor va yorqin bosqichni tashkil etadigan Ikkinchi Uyg'onish davri — temuriylar Renessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg'in muhokamalar o'tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz", deyiladi davlatimiz rahbari tabrigida.

Konferensiyaning ochilish marosimida ma'ruzachilar Amir Temur va temuriylar davrining davlatchilik an'anasi, diplomatiyasi, harbiy san'ati hamda ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi o'rni yakkil e'tirof etildi. Ayniqsa, o'sha davrning Sharq Renessansi shakllanishidagi ahamiyati, jahon sivilizatsiyasiga ko'rsatgan ta'siriga alohida e'tibor qaratildi.

Yalpi majlis va sho'ba yig'ilishlarida davlat boshqaruvi va diplomatiya, harbiy strategiya, me'morchilik va shaharozlik, ilm-fan va ta'lim rivoji kabi yo'nalishlarda ilmiy ma'ruzalar taqdim etilmoqda. Mutaxassislar temuriylar davri merosini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o'rganish masalasini ham muhokama qilmoqda.

Ishirokchilar uchun Islom sivilizatsiyasi markazi bilan tanishuv, mavzuli ko'rgazmalar hamda madaniy dasturlar tayyorlangan. Umuman, sermazzun dasturda tadbirni ilmiy jihatdan boyitish barobarida mehmonlarga O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi bilan yanada tanishish imkonini yaratish nazarda tutilgan.

**Nodir MAHMUDOV,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

# ELEKTRON TIJORAT IQTISODIYOTNING MUHIM DRAYVERLARIDAN BIRIGA AYLANTIRILADI

## Boshlanishi 1-betda

Ta'kidlanganidek, tovar uchun boj to'lovlarini uni sotish paytida amalga oshirish tizimini joriy etish orqali kamida 500 million dollar investitsiya jalb qilish uchun sharoit yaratish mumkin. Bunday amaliyot Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi mamlakatlarda keng qo'llanilayotgani qayd etildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda omborlarning umumiy maydoni 634 ming kvadrat metni tashkil qilib, shundan 72 foizi Toshkent shahri va viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Mavjud omborlarning atigi 34 foizi zamonaviy "A" toifasiga mansub. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun keyingi besh yilda 2,5 million kvadrat metr zamonaviy omborlar talab etiladi.

Shu munosabat bilan yurtimizda yirik xalqaro marketpleyslarning zamonaviy omborlar tarmog'ini kengaytirish taklif etildi.

Raqamli platformalarni hamda bond omborlarni soliq va bojxona tizimlari bilan chuqur integratsiya qilish

zarurligi ta'kidlandi. Taqdimotda 2026-2028-yillar davomida tajriba tariqasida "import — bond ombori — maxsus elektron savdo platformasi — iste'molchi" zanjiri asosida yangi mexanizmi joriy etish taklifi bildirildi.

Unga ko'ra, tovarlar bond omboriga joylashtiriladi, maxsus elektron savdo platformasi orqali sotiladi, bojxonada deklaratsiyalash va boj to'lovlarini esa bevosita sotuv bosqichida amalga oshiriladi. Bunday platformalar va omborlar tegishli reyestrlarga kiritilib, Bojxona qo'mitasida hisobga qo'yiladi.

Shuningdek, bond omborlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtirishi, aylanma mablag'larga tushadigan yukni kamaytirishi, logistika xarajatlarini pasaytirishi va eksport raqobatbardoshligini oshirishi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari elektron tijoratni iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirish, mashhur sohada zamonaviy infratuzilmani yaratish, raqamli platformalar faoliyati uchun qulay va shaffof muhit shakllantirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

# SO'XDAGI YANGILANISHLAR HUDUDNING IQTISODIY FAOLIGI OSHIB BORAYOTGANING AMALIY IFODASIDIR

## Boshlanishi 1-betda

Taqdimotda mutasaddilar joriy yilda tumanga 40 million dollar investitsiya jalb qilish, 15 million dollarlik eksporni ta'minlash rejasini olingani haqida axborot berdi. Buning hisobiga sanoatda 9 foiz, xizmatlar sohasida 17,1 foiz, qishloq xo'jaligida 7,6 foiz o'sishga erishish ko'zda tutilgan.

Yig'ilishda tumaning turizm salohiyatiga alohida e'tibor qaratildi.

So'xning betakror tabiati, musaffo havosi, daryolari va salqin iqlimi mazkur sohani iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylantirish imkonini berishi ta'kidlandi. Masalan, Sarikanda, Rovon va Istiqlol mahallalaridan o'tgan So'x daryosi qirg'oqlarida yangi turizm obyektlarini qursa bo'ladi. Yoki bu yerda reabilitatsiya, fizioterapiya, dori-darmon logistikasi va tibbiy ta'limni bir hududda jamlagan Tibbiy xizmatlar klasterini tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Umuman, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida 60 million dollar investitsiya jalb qilish, qiyos 2 ming ish o'rni yaratish, turizm xizmatlari hajmini 15 milliard so'mga, eksporni esa 2 million dollarga oshirish rejalashtirilgan ma'lum qilindi.

Eng muhim vazifalardan biri sifatida aholi yashashi va mehnat qilishi uchun qulay infratuzilma yaratish, tadbirkorlikni kengaytirish va bandlekni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Har bir mahallada 10 tadan, jami 300 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 8,6 ming aholi kasb-hunarga o'qitiladi. Bu loyihalarga banklar tomonidan 64 milliard so'm kredit resursi yo'naltiriladi, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari uchun esa qo'shimcha 74,5 milliard so'm ajratiladi.

O'ZA

# BILIMLARNING BARCHASI — AJDODLARIMIZ QOLDIRGAN MA'NAVIY MEROSDA



**Azamat ZIYO,**  
**O'z FA Tarix instituti direktori,**  
**Oliy Majlis Senati a'zosi,**  
**akademik**

Har birimizga iftixor va quvonch bag'ishlab turgan ushbu tantanaga shaxsan Prezidentimiz bosh-qosh bo'layotgan yurdoshlarimiz, ayniqsa, oydinlarimiz e'tibordan chetda qolmadi va umummilliy kayfiyatni o'ta ko'tarib yubordi. Mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi va boshchiligida bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazida o'tkazilayotgan ilk ellararo ilmiy yig'in "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati"ga bag'ishlanganida ham katta hikmat bor.

Davlatimiz rahbarining shu yil 5-fevralda qabul qilingan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiyi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori atqoli bobomizning ruhiy quvvati, tarixiy xizmatlari, umuman, temuriylar davri o'rganishning butunlay yangicha asos va mazmundagi tashkili, ilmiy, madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Albatta, ularni bajarish katta bilim, tirishqoqlik, chidam va muddat talab qiladi. Biroq o'tgan ikki oydan sal

**Ayni kunlarda o'zbekning ulug' bobokaloni, kishilikning buyugi, Sharqu G'arbn mo'g'ullarning 150-yillik istibodidan qutqargan xaloskor, O'rtayer dengizdan Xitoy devorlari, Moskva va Kiyevdan Dehligacha yastangan saltanat asoschisi, Ikkinchi Uyg'onish davri — Temuriylar oltin chog'i bunyodkori, davlat va jamiyat boshqaruvi bo'yicha nodir asar — "Temur tuzuklari" muallifi, milliy g'ururimiz ramzi Amir Temurning 690 yilligini bayram qilmoqdami!**

ko'proq vaqt ichida qilib ulgurilgan ishlardan xorijlari — Amir Temur maydoni va Temuriylar tarixi davlat muzeyida yuz bergan o'zgarishlarni alohida urg'ulagan bo'lar edik.

To'g'ri, bundan o'ttiz yil burun maydon va muzeyning yaratilishi o'z zamonasi uchun katta voqea sanalgan. Biroq keyingi yillari ular e'tibordan ancha chetda qolgan ham bor gap. O'shandan beri ushbu qutlug' yerga na o'zimizning, na chet davlatlarning rahbarlari kelib, buyuk bobomizga hurmat bajo keltirganini eslay olmaymiz. Muzeysida esa quruq suratlar va temuriylar davri imoratlarining qog'ozdan tayyorlangan nusxalaridan boshqa aytarli narsa yo'q edi. Ochiq'ini aytganda, iloji tug'olsa, xorijlik hamkasblarimiz, ayniqsa, temurshunoslarni u yerga olib bormaslikka urindirdi...

Bugun esa Amir Temur maydoni ham, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ham xuddi ko'klam tarovatidek ochilib, yashnab ketdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohibqiron xotirasiga hurmat bajo keltirish uchun bu yerga Prezidentimiz tashrif buyurdi. So'nggi o'ttiz yilda ilk marta yuz bergan ushbu voqeani tasodif deb bilmaymiz. Milliy yetakchimizning umuman boy va qadim tarixiy-madaniy merosimiz, ayniqsa, buyuk Amir Temur shaxsi, Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlarimizga bo'lgan alohida mehr va qadrlash bilan munosabatini o'zimizgina emas, butun dunyo biladi va tan oladi.

Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish bosqichlari masalasini aslida birinchi bo'lib davlatimiz rahbari ko'targani va u xalqaro darajada e'tirof etilishiga erishgani ham bor gap. Milliy ozodlik harakatlari, jadidchilik kabi taqiqqa tushib borayotgan Amir Temur va temuriylar mavzulari uchun "oq yo'l" ham aynan yangi O'zbekistonda ochilganini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Mazkur xotiralari ta'sirida bo'lsa kerak, davlatimiz rahbarining ko'rgazmalari yangilanib,

bo'yib, chindan ham endi muzeyga aylangan dargohga tashrif, u yerdagi har bir ashyoni sinchiklab kuzatishyuzi, Sohibqiron bobomiz va temuriylar tarixini o'rganish, targ'ib etishni unumliroq va ta'sirchanroq qilish bo'yicha mo'ljal va topshiriqlarini eshitib, bir xulosaga keldik: mamlakatimiz yetakchisi mavzuni barchamizdanda ko'ra chuqurroq va ko'lamliroq bilishidan tashqari, Amir Temur va temuriylar merosini yuziga chiqarish bo'yicha yanada yuksak rejalarini bor ekan!

Ulamii mushohada etar ekanmiz, Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlarining Uchinchi Uyg'onish bosqichimiz — Yangi O'zbekiston bilan uzviy bog'liqligi borasidagi xulosamiz yanada kuchaydi. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Amir Temur bobomiz qoldirgan merosning tengi yo'q, uning mag'zida inson qadriini ulug'lash g'oyasi bo'lgan va biz bugun uni yangicha sharoitlarda yuzaga chiqaraymiz" deb aytganlari, qaysi tarixiy bosqichda bo'lmasin, buyuk o'zgarishlar va ishlarning tabiati aslida o'zgarimasligi haqiqatini yana bir bor isbotladi deb ishonamiz. Ya'ni inson qadr-qimmatini va millat ro'hnoligi uchun qilinajak harakatlarga yuksalishlarga yetaklaydi.

Tashrif davlatimiz rahbariga xos fazilatini yana bir bor namoyon etganini alohida urg'ulagan bo'lardik. U ham bo'lsa, katta-kichikligidan qat'i nazar, biror loyiha bitkazilgach, undan samarali foydalanish, el-yurti bahramand etish choralarini ko'rish!

Bu gal ham shunday bo'ldi. Dunyo havas qilgulik tariximiz, merosimiz borligini ta'kidlagan milliy yetakchimiz, endi ularni yurdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar, chet eldan keluvchilarga yetkazish zarurligiga diqqat qaratdi. Zero, yangi O'zbekistonda yuksalish uchun kerakli bilimlarni barchasi — ajdodlarimiz qoldirgan merosda, imladi!

O'ZA



# TAMADDUN

## tafakkuri

**Biz Markaz qurilishini ilmiy tadqiqot va izlanish ishlari bilan barobar ravishda olib bordik. O'tgan davrda ko'hna merosimizga oid, bizga umuman noma'lum bo'lgan qancha-qancha noyob ma'lumotlarni kashf etdik.**  
**Xalqaro ekspertlar e'tirof etganidek, bugun O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha o'ziga xos katta ilmiy maktab yaratishga erishdik. Naqadar katta imkoniyatlarimiz, intellektual salohiyatimiz borligini dunyoga namoyon eta oldik.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**



## YURT TARAQQIYOTIDA YANGI INTELLEKTUAL PLATFORMA

### Minbar



**Bahrom ABDOHALIMOV,**  
**Fanlar akademiyasi**  
**vitse-prezidenti, xalq deputatlari**  
**Toshkent shahar kengashi**  
**deputati**

**Mintaqaning boy madaniy va ilmiy merosi. O'zbekiston hududi asrlar davomida turli madaniyatlar kesishgan ulkan makon bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda fors, arab, turkiy va xitoy an'analari mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unlashgan. Mintaqaga Buyuk ipak yo'li orqali savdogarlar, olimlar va sayohatchilar kelib-ketgan. Bu zaminda yaratilgan ilmiy kashfiyotlar va me'moriy yodgorliklar butun insoniyat merosiga aylangan.**

Bugun ana shu boy ma'naviy va ilmiy meros Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent markazida barpo etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida jamlangan. 65 metrli gumbaz ostida islom dini, madaniyat, fan va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan. Bu oddiy muzey emas, balki "Yangi O'zbekiston" deklaratsiyasi, ilmiy xab va zamonaviy bilimlar platformasidir.

**Markaz ochilishi va ma'naviy ahamiyati.** Mamlakatimiz yetakchisi ishtirokida markazning ochilishi nafaqat davlat ahamiyatiga ega voqea, balki ma'naviy tiklanish, tarixiy vorislik va davlatimizning kelajakka intilishining chuqur ramzi bo'ldi. Bu voqea milliy o'zlikni anglashda yangi bosqichni anglatib, o'tmish, bugun va

kelajakni o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida talqin etishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning markaz ochilish marosimidagi nutqi jamiyatga qaratilgan mazmunan boy va konseptual jihatdan puxta murojaat sifatida yangradi. Unda tarix arxiv emas, balki bilim, saboq va qadriyatlarining tirik manbai ekani g'oyasi yaqqol ifoda etildi. Aynan tarixiy tajribaga murojaat qilish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan mustahkam qadriyatlar tizimi shakllandi.

Nutqda islom dinining insonparvarlik mohiyatiga alohida e'tibor qaratildi. U, avvalo, ilm, ma'rif va axloqiy kamolotga yo'naltirilgan din ekani ta'kidlandi. Markaz arxitekturasiga jo etilgan "Iqro!" ("O'qi!") oyati ramzi strategik g'oyani ifoda etadi: kuchli va rivojlangan davlatning poydevori ta'lim va ilm-fandir. Bu g'oya O'zbekistonda Uchinchi Renessansni shakllantirish siyosati bilan uzviy bog'liq.

**Yaratish falsafasi: jaholatga qarshi ma'rif.** Markazni barpo etish tashabbusini davlatimiz rahbari 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surdi. Uning binosi ham Prezidentimizning me'moriy g'oya va takliflari asosida loyihalashtirildi. Majmuaning asosiy g'oyasi islomning haqiqiy insonparvarlik mohiyatini himoya qilishdir.

Bugungi global sharoitda — islomofobiya kuchayib borayotgan bir paytda O'zbekiston yangi gumanitar kun tartibini ilgari surmoqda. Islom tinchlik, ezgulik va insonparvarlik dini ekani ta'kidlanmoqda. Majmuaning arxitekturasida chuqur falsafiy ma'no kasb etadi. Balandligi 65 metr bo'lgan markaziy gumbaz olamning birligi va ma'naviy hamda ilmiy bilim uyg'unligini ifoda etadi.

Ichki makon esa tarixiy merosni anglashdan kelajak tasavvurini shakllantirishgacha bo'lgan intellektual sayohat tarzida tashkil etilgan. Zamonaviy multimedial va interaktiv texnologiyalar eksponatlarini namoyish etish



bilan birga ziyoratchilarda to'liq "anglash" effektini hosil qiladi.

**Qur'on zali — ma'naviy yurak.** Markazning ma'naviy qalbi — Qur'on zali. Bu yerda VII asrga mansub Usmon Mus'hafi saqlanadi. U kufiy xatida kiyik terisiga yozilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, sahifalariga xalifa Usmonning qoni tomgan. Bu noyob qo'lyozmaning tarixi juda murakkab: Amir Temur tarafidan Samarqandga olib kelingan; muqaddas kitob keyinchalik Toshkent, Sankt-Peterburg va Ufa orqali o'tib, 1941-yilda O'zbekistonga qaytarilgan. O'tgan davrda murakkab sharoitlarda saqlab kelingan bu noyob qo'lyozma faqat yangi O'zbekiston paytidagina o'zining munosib o'rni va maqomiga ega bo'ldi.

Bu yerda Usmon Mus'hafi bilan bir qatorda Qur'onni karimning yurtimizga tegishli bo'lgan, turli sulolalar davrida yaratilgan nodir qo'lyozmalari jamlangan. Ular orasida somoniy, qaraxoniylar, g'aznaviylar, temuriylar, shayboniylar va boshqa davrlarga mansub noyob nusxalar bor. Bu qo'lyozmalar nafaqat diniy, balki ulkan tarixiy, ilmiy va badiiy qiymatga ega.

**Xorijdagi tarixiy merosimizning Vatanga qaytishi.** Markaz faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri madaniy merosimizning Vatanga qaytarilishi va saqlanishidir. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi bilan xalqaro hamkorlik, ilmiy ekspeditsiyalar va auktsionlar orqali mingga yaqin noyob artefakt yurtimizga qaytarildi. Ular qatorida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalarning qo'lyozmalari, shuningdek, noyob amaliy san'at namunalari va arxeologik topilmalar mavjud.

**Ilmiy konsepsiya va renessanslar.** Markazning tarixiy konsepsiyasi mintaqaning ko'p asrlik taraqqiyotini qamrab oladi va to'rt bosqichga e'tibor qaratilgan: islomgacha bo'lgan davr, Birinchi va Ikkinchi Renessans davridagi ilmiy-madaniy yuksalish va Yangi O'zbekistondagi zamonaviy islohotlar.

**Birinchi Renessans.** Birinchi Renessans islom olamida ilm-fan rivoji bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda Markaziy Osiyo olimlari muhim o'rin tutgan. Ulardan biri — Muhammad Xorazmiy zamonaviy matematika asoslarini yaratgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy tabiiy fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Imom Buxoriy va Imom Termiziy esa islomiy ilmlar taraqqiyotiga sabab bo'lgan. Ekspozitsiya Birinchi Renessansni faqat tarixiy bosqich sifatida emas, balki zamonaviy O'zbekiston taraqqiyoti uchun intellektual va ma'naviy asos sifatida namoyon qiladi.

Asosiy e'tibor islom sivilizatsiyasi ilm, ma'rif va insonparvarlik tamoyillariga asoslanganini ko'rsatishga qaratilgan. Zalning ilmiy iftixori — Abu Rayhon Beruniyning X asrda ilk bor yaratilgan globusining qayta tiklangan nusxasi. Asl nusxa yo'qolgan bo'lsa-da, Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti olimlari uni saqlanib qolgan qo'lyozmalar va chizmalar asosida qayta tikladi.

**Ikkinchi Renessans.** Ikkinchi Renessans temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat siyosiy va iqtisodiy yuksalish, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning taraqqiy etgan davri sifatida tarixda alohida o'rin tutadi. Bu davr Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi

buyuk allomalarning serqirra faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda barpo ettirgan rasadxona va uning atrofidagi shakllangan ilmiy maktab astronomiya, matematika va geografiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning "Zij jaddi Ko'ragoniy" asari o'sha davr ilmiy yutuqlarining yorqin namunasi sifatida butun dunyoda tan olingan.

Alisher Navoiy esa boy adabiy merosi orqali nafaqat turkiy adabiyotni yuksak bosqichga olib chiqdi, balki insonparvarlik, ma'rif va ma'naviy kamolot g'oyalarini targ'ib qildi.

Markazdagi asosiy sovg'a sifatida ziyoratchilarni Amir Temur bilan "uchrashuv" kutib turibdi. Muzeyda ilg'or sun'iy intellekt faoliyat yuritilmoqda. To'liq avtonom serverlarda O'zbekiston va dunyo kutubxonalarini arxivlaridan skaner qilingan millionlab sahifalar asosida neyron tarmoqlar joriy etilgan.

Bu davrda Samarqand dunyoning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, turli mamlakatlardan olim va mutafakkirlar jalb etilgan. Shu tariqa temuriylar davrida ilm va madaniyatning global mulloqoti shakllandi.

**Sun'iy intellekt va interaktiv platforma.** Markazning o'ziga xos jihatlardan biri zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanishidir. Sun'iy intellekt, virtual va interaktiv multimedia orqali tarixiy materiallar yangi uslubda taqdim etilmoqda. Bu, ayniqsa, yoshlar uchun jozibador va qiziqarli.

Markazda sun'iy intellekt qo'lyozmalarni o'qish, tarjima qilish va tiklashda qo'llanadi, raqamlashtirish esa noyob mablamali elektron

shaklda saqlash va ommalashtirishga xizmat qiladi. Multimedial, interaktiv ekranlar va VR/AR texnologiyalari orqali tarix va madaniyat zamonaviy usulda namoyish etiladi.

**Xalqaro ilmiy hamkorlik.** Markaz xalqaro ilmiy xab sifatida ham faoliyat yuritib, turli mamlakatlardan tadqiqotchilarni birlashtiradi. Bu yerda madaniy merosni o'rganish, restavratsiya qilish va ommalashtirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshiriladi. Zamonaviy laboratoriyalar qadimiy artefaktlarni saqlash imkonini beradi.

Markaz faqat o'tmish yutuqlarini namoyish etish uchun emas, balki kelajak bilimlarini yaratish maydoni sifatida ham rejalashtirilgan. Ikkinchi qavatda dunyoga tanilgan xalqaro ilmiy markaz tashkil etilmoqda. UNESCO, Oksford islom tadqiqotlari markazi, ICESCO, IRCICA, TURKSOY va boshqa nufuzli global tuzilmalar o'z vakolatxonalarini ochishni rejalashtirmoqda. Hozir 40 davlatdan olimlar faoliyat yuritib, 800 dan ortiq ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirmoqda.

**Yosh avlod va milliy qadriyatlar.** Markazda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad — yoshlarda milliy va diniy qadriyatlarga hurmat, ilmiy tafakkur va ma'naviy yetuklikni shakllantirish.

Bu yerda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv ekspozitsiyalar va raqamli platformalar orqali yoshlar tarixiy merosni chuqur o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Buyuk allomalarning ilmiy merosi yoshlarni ilm-fanga qiziqitirish, ularda tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Markaz yoshlarga islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini namoyon etishda muhim vazifani bajaradi. U islom sivilizatsiyasi tarixan bag'rikenglik, insonparvarlik, ilm-fan, ta'lim va madaniyat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

**Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans.** Ekspozitsiyaning yakuniy akkordi — Uchinchi Renessans konsepsiyasini aks ettiruvchi "Yangi O'zbekiston" zali. Bu yerda tarixiy an'analar taraqqiyot bilan uyg'unlashib, respublikadagi islohotlar ulkan LED panellar va VR makonda vizual tarzda namoyon etiladi.

Markaziy badiiy obyekt — katta hajmli kinetik daraxt. U mahalla — jamiyat ijtimoiy tuzilmasining asosini tashkil etuvchi noyob qo'shnichilik an'anasini ifodalaydi. 14 ming optik tola yonib, tanish milliy ramzlarni hosil qiladi. Kinetik ekranda navbatma-navbat bayroq matosi, milliy naqshlar namoyish etiladi va yakunda ekran ulkan oynaqa aylanadi. Har bir ziyoratchi unda o'z aksini ko'radi — bu yangi O'zbekistonning eng oliy qadriyati — INSON g'oyasini namoyon etadi.

**So'ngsoz o'rni.** Islom sivilizatsiyasi markazi an'ana va innovatsiya uyg'unligining yorqin namunasidir. U muzey, ilmiy, ta'limiy va diplomatik vazifalarni bajarada-da, asosiy missiyasi — o'tmishga hurmat va kelajakka intilishga asoslangan yaxlit dunyoqarashni shakllantirish.

Markaz rasman to'liq ochilishidan ilmiy ham jahon siyosiy, ilmiy va madaniy eldasi uchun muhim jalb etuvchi nuqtaga aylanib ulgurdi. Davlat rahbarlari, diplomatlar, lordlar va mashhur shaxslar allaqachon markaz bilan tanishgan. Bu yirik loyiha nafaqat arxitektura obyektidir, balki Yangi O'zbekistonning intellektual va ma'naviy markaziga aylanoqda. U tarixiy meros nafaqat saqlanishi lozim bo'lgan boylik, balki jamiyatni umumiy qadriyatlar va strategik muvofiqdalar atrofida birlashtiradigan kuchli raqamlashtirish manbai ekanini namoyon etadi.



Ne'matullo MUHAMMEDOV,  
O'zbekiston xalqaro  
islomshunoslik akademiyasi  
professori, tarix fanlari  
doktori

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Hazrati Imom (Xastimom) me'moriy majmuasi yonida barpo etilishining tarixiy, madaniy, diniy va ma'rifiy asoslari bor. Ya'ni uch ming yillikdan ziyod shonli tariximizni yangi O'zbekiston bilan bog'laydigan, inson va xalq qadriyatini ulug'laydigan aql-tafakkur markazi aynan Xastimom majmuasi yonida bunyod etilishi bejiz emas.

Xastimom majmuasi nafaqat yurtimizda, balki butun islom olamida alohida nufuz va e'tibor qozongan tabarruk maskandir. Majmua tarkibidagi Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon va Mo'yi muborak madrasalari, Tilla shayx hamda Namozgoh masjidlari asrlar davomida xalqimiz tomonidan asrab-avayab kelinmoqda.

Ko'hna Toshkentning Sebzor dahasidagi Hazrati Imom ziyoratgohi poytaxtning bosh yodgorlik majmualaridan sanaladi. "Xastimom" so'zi "Hazrati Imom" iborasining qisqartirilgan shaklidir. Mazkur joy atamasi shu yerdagi asosiy ziyoratgoh — Toshkent (Shosh)da tug'ilgan, musulmon olami ommlaridan biri Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi nomidan olingan.



Bilib qo'ygan yaxshi

## MARKAZ AYNAN XASTIMOMDA QURILISHINING TARIXIY ASOSLARI

Mahalliy xalq Imom Qaffol Shoshiy hurmatidan bu joyni shunday atagan. Mazkur tabarruk maskan ko'hna poytaxtimizning diniy-ma'rifiy, ilmiy-madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Zero, Toshkentda islom madaniyatining Shayx Xovand Tohur, Zangi ota, Xoja A'lambardor, Suzuk ota, Yunusxon maqbaralari hamda Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari, shuningdek, Xoja Ubaydullo Ahror Valiy, Shayx Zayniddin nomlari bilan bog'liq ko'plab tarixiy obidalar mavjud.

XIX asr oxirlarida Toshkent to'rtta — Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur mustaqil hududiy mavzulariga bo'linib, alohida-alohida boshqarilgan. Imom Qaffol Shoshiy ziyoratgohi va atrofi bevosita u zotning nomi bilan bog'lanib, yuqorida aytilganidek, Xastimom (Hazrati Imom) deb atalgan. Xastimom o'z davrida Toshkentning ilmiy, hunarmandlik va savdo-sotiq markazlaridan biri sanalgan. Bunga ushbu hududning jug'rofiy

joylashuvi, irrigatsiya inshootlari — anhor va ariqlari go'yo qon tomirlaridek chiroyli taralgani sabab bo'lgan. Toshkentning sersuv anhor va ariqlari azal-azaldan barchani hayratga solib kelgan.

Tarixiy rivoyatlarga qaraganda, bu o'lkada hukmronlik qilgan Kayxirav I ning o'g'li Kaykovus (ayrim manbalarda Kalkovuz) davridan beri mahalliy aholi asosan zargarlik, mahsido'zlik, kulollik bilan dong taratgan.

Hududdan oqib o'tgan Kaykovus anhoridan shaharga zilol suvlar tarala boshlagach, odamlar chorvachilik, dehqonchilik bilan ham shug'ullanib, bog'-rog'lar barpo etadilar. Shu tariqa Xastimom hunarmandlik, savdo va ilmiy, madaniyat markazi sifatida rivojlanib borgan.

Xastimom mahallasi xususida marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari bunday yozib qoldirgan:

"Imom Qaffol Shoshiy nomlari bilan shuhrat qozongan Xastimom mahallasi o'z zamonasida Toshkentning diniy, ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy markazi sifatida dong chiqargan. Hozirgi diniy idoraning kutubxonasi joylashgan bino Mo'yi muborak madrasasidir. Uzoq vaqlar ushbu madrasada payg'ambarimiz alayhissalomning muborak mo'yilari saqlanib kelgani uchun shunday deb ataganlar. Ilm maskani bo'lgan dargohda ko'p vaqt tasavvuf ahlining yirik namoyandalardan biri Xoja Ahror Valiydek zot mudarrislik qilgani haqidagi ma'lumotlar kitoblarda yozib qoldirilgan. Mo'yi muborak madrasasi va Tilla shayx masjidi joylashgan hududni Mahvatay mullayon, ya'ni mullalar va ahli ilmlar bilan o'rab olingan joy, deb atab kelganlar. Mahalliy xalq uni sal buzib "Mahvota", deya talaffuz qiladi. Darhaqiqat, XVI asrda Mahvatay mullayon ro'parasida Baroqxon nomi bilan mashhur hukmdor Navro'z Ahmadxon tomonidan Baroqxon madrasasi ham qurib bitkazilgan. Bu esa Xastimom mahallasi xalqning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaganidan dalolatidir".

Rus sharqshunosi Nil Likoshin 1918-yili Toshkentda tashkil etilgan Turkiston xalq (musulmon) universiteti ochilishida avvalo Qaffol Shoshiy nomini ehtirom bilan tilga olgan: "Bugun Yevropa fani Eski Toshkent qismida grajdalik huquqiga ega bo'lgan quvonchli bir kunda Toshkent musulmonlarining ma'rifati yo'lida jonbozlik ko'rsatgan fidoyi, kamtar shaxsning siymosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Men shaharning Sebzor qismida shu nomdagi qabristonga dafn etilgan Imom Muhammad Qaffol Shoshiy yoki Hazrat Imomini esladim. Bu shaxs bilan musulmonlar faxrlanishlari va bugun o'zlarining birinchi ustozlarini yaxshi so'zlar bilan xotirlashlari lozim...".

Afsuski, sho'rolarning ajdodlarimiz qadamjo va ziyoratgohlariga nisbatan o'timish qoldirilgan sifatidagi ateistik munosabati natijasida bunday maskanlar e'tibordan chekda qoldi. Lekin har bir yurtdoshimiz qalbiga o'zi tug'ilib o'sgan joy nomlari tarixi, urf-odatlari va madaniyatiga mehr, qiziqish so'nmadir. Istiqloq ajdodlarimiz qadamjolarini obod etish bilan birga ularning faoliyati va ilmiy merosi bo'yicha izlanishlar olib borishga keng yo'l ochib berdi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Xastimom majmuasi yonida barpo etilishi tarixiy ildizlarga ega. Muhimi, markaz mahabati, maydoni va qamroviga ko'ra dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biri sanaladi.

### Hazrati Imom (Xastimom) quyidagi ansambllarni o'z ichiga oladi

#### BAROQXON MADRASASI

XVI asr o'rtalarida qurilgan. Baroqxon madrasasi uch qismga bo'linib qurilgani arxeologik izlanishlarda aniqlangan. 1917-yilda madrasa yotoqxonaga aylantirildi. Binoning tarixiy ko'rinishiga jiddiy putur yetadi, 1936-yili Ko'rlar jamiyatiga beriladi, keyin esa turli ashyolar saqlanadigan omborxonaga sifatida ishlatiladi.

1950-yildan 2007-yilgacha Baroqxon madrasasida O'zbekiston musulmonlari idorasi faoliyat ko'rsatib kelgan.

#### MO'YI MUBORAK MADRASASI

XV asrda Baroqxon madrasasi qarshisida qurilgan va keyinchalik buzilib ketgan. 1856-1857-yillarda Mirzo Ahmad qushbegining amri bilan Mo'yi muborak madrasasi

qayta qurilgan. Bu nom berilishiga madrasa hujralaridan birida maxsus shisha idishda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak mo'yilari saqlanishi sabab bo'lgan. Uning yonida bir necha bor qayta qurilgan shaharning jome masjidlaridan biri, hozirgi Tilla Shayx masjidi ham bo'lgan.

Tarixiy manbalarda ushbu madrasaga naqshbandiya tariqatining mashhur vakili Xoja Ahror Valiy mudarrislik qilgani eslatib o'tiladi.

#### NAMOZGOH MASJIDI

Masjidning qurilgan vaqti to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Masjid Toshkentning Rossiya tarkibiga kirishidan avval, ya'ni 1865-yilgacha qurilgan bo'lishi mumkin. Mahalliy aholining aytishicha, masjid Qo'qon xoni Xudoyorxon hukmronligi (1845-1875) davrida qurilgan. Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasidan

yarim kilometr janubi-g'arbda ilgirdan Namozgoh masjidi bo'lgan va u joylashgan mahalla ham shu nom bilan atalgan.

Toshkentda hukmronlik qilgan Qo'qon xonlari davrida yangi Namozgoh qurilishi shaharning rivojlanishi va taraqqiy topishining dalili edi. Yangi Namozgoh masjidi shaharga yaqin etib ko'chirilgan edi. Musulmonlar Qurbon va Ramazon hayitlari namozini shu yerda ado etishardi.

#### TILLASHAYX MASJIDI

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, 1899-yili Mo'yi muborak madrasasi yonida Tilla shayx nomini olgan jome masjidi qurilgan. Uni boyligi, adolatligi hamda saxovati bilan nom chiqargan Tilla shayx barpo etgan.

Hozirgi vaqtda masjid qayta ta'mirlangan va u yerda musulmonlar har kuni besh mahal namozini ado etmoqda.

Yaqinda Yozuvchilar uyushmasi a'zolaridan bir guruhi bilan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazini ko'rish uchun bordimu, anchadan buyon yo'lim tushmagani bois, bu yerlar tamoman o'zgarib, go'zallashib ketgani guvohi bo'ldim. Tor va zax tortgan ko'chalar, pastakkina somonsuvoq uylar o'rnida o'zgacha zamonaviy manzara. Ko'rib ko'zim quvondi, o'zimni yengil his eta boshladim.

### Bolalarga bering dunyoni



fikrlashiga hissa qo'shadigan, yangi asr farzandlari dunyoqarashiga mos ravishda taqdim etilgan imkoniyatlar, deyish mumkin.

Prezidentimizning O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida nutqini tinglaganimda, xalqimiz ziyolilariga qarata aytilgan quyidagi da'vatkor so'zlar meni ham befarq qoldirmagan edi:

"Markaz yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, ulug'bek va beruniylar, farg'oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyalar yetitish chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lishi kerak.

Bu — barchamizning ezgu niyatimizdir. Markaz o'zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma'naviyat fidoyilariga — hurmatli olim va tadqiqotchilarga, shoir va adiblar, diniy ulamolara, rejissyor va rassomlar, jumalistlarga, ijodkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman: Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har

## FARZANDLARIMIZ AQL-ZAKOVATINI HAM BOYITADI



Zahro HASANOVA,  
"Gulxan" jurnali bosh  
muharriri

Mahobatli Islom sivilizatsiyasi markazidagi har bir zal, ekspozitsiya, sun'iy intellekt asosida yaratilgan multimedialni texnologiyalar, ularning tarix va bugungi kun bilan uyg'unlashgani ziyoratchiyu sayyohni hayratga soladi. Koinot tasviri, yulduzlar jilosi, ajdodlar merosi, islom tarixi va madaniyati — uch ming yillik tariximizni ko'z o'ngimizda namoyon etadigan muhtasham

saroy. Shularning hammasi inson aqlu zakovati, ilmi, teran mushohadasi, yuksak salohiyati, ajdodlarimizning asl hunarmandlik merosi asosida yaratilganiga hayron qolasiz.

Ha, zaldan zalga o'tar ekanimiz, undagi nihoyatda boy madaniy meros namunalarini ko'rib, ortida katta mehnat, yuqori darajadagi diplomatik munosabatlar, tashkilotchilik, katta mablag' evaziga yaratilganini anglash qiyin emasli.

Ijodkor sifatida meni bolalar uchun yaratilgan interaktiv va bilim beruvchi zal alohida diqqatimni tortdi. Bu bo'limda kichik va o'rta yoshdagi bolalarni O'zbekiston tarixi va madaniy merosi bilan tanishtirish, olamshumul ixtirolar va kashfiyotlarga qiziqishini oshirish uchun buyuk ajdodlarimizning bolaligi haqidagi qisqa va aniq ma'lumotlar, ular yaratgan kashfiyotlar hamda allomalarning bolalik obrazidagi avatarlari ham taqdim etilgan. Zalga kirgan bolalar ushbu interaktiv avatlar bilan muloqot qiladi, ularga savollar berib, ma'lumot olishlari mumkin bo'ladi.

Bolalar uchun yaratilgan bo'lim "O'zbekistondan dunyoga 1001 ixtiro" deb nomlangan katta kitob bilan boshlanadi. Bu xona buyuk britaniyalik Ahmad Salim loyihasi asosida yaratilgan, — deb izoh beradi bo'lim koordinatori yordamchisi Shahina Alijonova. — Xonadagi jilhozlar, monitor va aypatlar mamlakatimiz va uning viloyatlari, buyuk allomalari, milliy valyutasi, madhiyasi haqida ma'lumotlar beradi. Har bir interaktiv kontent uchta — o'zbek, rus, ingliz tilida taqdim etilgan. Kitob "Sehri qiziqchvanlik" degan so'z bilan ochiladi.

Bolalar bo'limining xonalari shunday nomlanganki, bu maskanga farzandini yetaklab kelgan ota-ona, o'qituvchi va murabbiylarga to'g'ri yo'nalish berib turadi. "O'tmishga darvozalar", "Kashfiyotlar va bilimlar davri", "Tasavvur kuchi", "G'oyalor olami" kabi. Zalning 1-qismi devorlaridagi qog'o'z qoplamalar Birinchi Renessans davridagi ixtirolar surati bilan bezatilgan. Zalning 2-qismida esa Ikkinchi Renessans davri illyustratsiyalari aks etgan. Aynan shu bo'limda Sohibqiron Amir Temur bobomizning ot mingan haykali ham bor.

"Kashfiyotlar zali"da Ahmad al-Farg'oniyning suv sathini o'lchaydigan nilometr asbobi o'rnatilgan. Bolalar pult orqali bu asbobi ishlatib ko'rish imkoniyatiga ham ega.

Abu Rayhon Beruniyning shamol kuchini aniqlaydigan maxsus asbobi ham bolalarga olimning ajoyib kashfiyoti haqida esda qolarli ma'lumot beradi. Ular monitorlardagi turli savollarga javob berish bilan o'z bilimlarini sinab ko'rishlari mumkin.

Buyuk rassom Kamoliddin Behzodning surati aks etgan elektron monitor yonida qo'l bilan amalga oshiriladigan yana bir ajoyib interaktiv tajriba guvohi bo'ldik. Bu ranglar orqali yangi rang hosil qilish mashg'ulotiga o'xshash bir imkoniyat, ya'ni bolalar bu yerda

o'z qobiliyatini ham sinab ko'rsa bo'ladi, degani.

Yana bir zalda arqondan yasalgan, tortishmachoq o'yinidagi kabi bolalar kuchini sinab ko'radigan asbobi kuzatib, negadir qadimgi milliy bolalar o'yinlari yodimga tushdi. Bola uchinchin o'lchamdan arqonni tortish orqali o'z kuchini sinab ko'radi. Mabodo kuchi yetmasa, ikkinchi va birinchi o'lchamga o'tadi. Shunday qilib, u o'z imkoniyatini aniqlaydi.

Robototexnika zali, katta-katta legolar bilan qurilish ishlarini amalga oshirish zali — bularning hammasi shakllanib kelayotgan bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun turki beradigan,

bir ekspонат qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar: uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin".

Biz bugun raqamlashgan davr bolasini tarbiyalashga kirishganmiz. Inchunin, Islom sivilizatsiyasi markazida bolalar uchun yaratilgan kontentlar jahon media kontentlaridan qolishmaydigan darajada ekanining guvohi bo'ldim. O'ylaymanki, bularning barchasi farzandlarimizni tarixga hurmat, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.



O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugun nafaqat o'zining ilmiy va ma'rifiy mazmuni, balki innovatsion va kreativ yechimlari bilan ham jamaotchilik e'tiborini tortmoqda.

Markaz ichidagi ekspozitsiyalar ilg'or raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan bo'lsa, uning tashqi me'moriy qiyofasi ham tomoshabinlar uchun o'ziga xos sahna aylantirilgan.

Quyosh botib, kun qoraya boshlashi bilan Markaz devorlarida yorug'lik, rang va harakat uyg'unligida namoyish etilayotgan 3D mepping-shou tarixni ko'z oldingizda yanada jonlantiradi.

Tomosha ikki seansa namoyish etiladi, har bir chiqish katta qiziqish va olqishlar bilan qarshi olinmoqda. Ushbu vizual loyiha har bir inson qalbiga o'ziga xos tuyg'ular uyg'otishi, tarix va ma'rifati yangi shaklda his qilish imkonini beradi.



Islohotlar samarasi

www.yuz.uz f yuz.uznews

siyosatini liberallashtirish muhim omildir. Vizasiz rejimning joriy etilishi, tranzit jarayonlarning soddalashtirilishi, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda tog'li hududlarda zamonaviy turizm klasterlarining faoliyat ko'rsatishi mamlakat imijini tubdan o'zgartirdi. Bugun O'zbekiston tarixiy yodgorliklar bilan birga yuqori servis va rivojlangan infratuzilimga ega zamonaviy turizm markazidir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaqinda poytaxtimizda qad rostlagan Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda zamonaviy muzei namunasini sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, majmua hududida turizm markazi ochilishi, Samarqandda Imom Buxoriy

# O'ZBEKISTON – MDH SAYYOHLIK TIZIMINING MARKAZIY BO'G'INI

Bugun turizm global iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri va xalq diplomatiyasining samarali vositasi sifatida mustahkam o'rin egalladi. MDH makonida ushbu soha alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u xalqlarimiz o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi va integratsiya jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

balki umumiy turizm makonini shakllantirish tashabbuskorlaridan biriga ham aylandi. Statistik ma'lumotlar tanlangan yo'l to'g'ri va o'zaro ishonch yuqori ekanini yaqqol tasdiqlaydi. 2018-yili MDH davlatlaridan kelgan mehmonlar soni taxminan 3,9 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib, bu ko'rsatkich bir necha barobar barqaror o'sdi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 11,7 million xorijlik turist kelgan. Shundan 8,5 millioni yoki 72,6 foizi aynan MDH davlatlari fuqarolaridir.

Asosiy hamkor davlatlar ko'rsatkichi ham bunga yaqqol dalil: Qozog'istonda 2,6 milliondan ortiq, Qirg'izistonda 3,3 million, Tojikistonda qariyb 2,7 million fuqaro kelgan. Rossiya Federatsiyasidan keluvchilar soni ham izchil o'sib, 2023-yildagi 715 mingdan 2025-yilda 984 mingga yetdi. Bu raqamlar MDH yagona sayyohlik makoni amalda shakllanayotganini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan turizm sohasidagi hamkorligi yangi sifat bosqichiga chiqdi. Rossiya Federatsiyasi bilan hukumatlararo komissiya doirasida ixtisoslashgan qo'shma kichik komissiya faoliyat yuritmoqda. Shuningdek,

2025-2026-yillarga mo'ljallangan turistik oqimni oshirish dasturi qabul qilingan.

Qozog'iston bilan 2026-2027-yillarga mo'ljallangan qo'shma harakatlar rejasini imzolangan. Qirg'iziston bilan an'anaviy yo'nalishlardan tashqari "Anklavlarga sayohat" va "Chotqol" qishki kurorti kabi loyihalarni amalga oshirilmoqda.

Tojikiston bilan 2026-2028-yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" kelishilgan. Belarus va Ozarbayjon bilan ham samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Turkmaniston bilan to'rt hududni birlashtiruvchi halqa marshruti ishlab chiqilgan.

Ko'p tomonlama formatda O'zbekiston qator muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, "MDH madaniy poytaxtlari" loyihasi qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bilan birga, "Buyuk ipak yo'li" transchegaraviy yo'nalishlarini tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Bir tur — bir hudud" dasturi doirasida xorijlik turistlar uchun kompleks sayohat paketlari ishlab chiqilmoqda. Logistika yengillashtirish maqsadida "Fast Track" tizimi joriy etilyapti.

O'zbekistonning sayyohlik yo'nalishi bo'yicha qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatida turizm

majmuasining qaytadan bunoyd etilishi, ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratilishi soha rivojiga munosib hissa qo'shadi, albatta.

Tog' turizmi sohasida ham samarali integratsiya kuzatilmoqda. 2023-yili tashkil etilgan Yevrosiyo tog' kurortlari alyansi "Shimbuoloq", "Amirsoy" va "Roza Xutor" kabi mashhur kurortlarni birlashtirdi. 2025-2026-yillar qishki mavsumida "Chegarasiz tog'-chang'i mavsumi" aksiyasi amalga oshirildi.

2025-yil mayda Sochi shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda 2025-2026-yillar MDHda "Tog' turizmi yili" deb e'lon qilingan edi. Ushbu tashabbus sohani yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. "Travel HUB" forumi ham aynan shu dastur doirasiga kiritilgan.

2022-yilda "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetiga MDHning bazaviy tashkiloti maqomi berildi. Mazkur qaror sohadagi muhim ehtiyojni qondiradi. Universitet bugun kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini samarali muvofiqlashtirmoqda.

Qisqasi, barcha sa'y-harakatlar mamlakatimiz hududida yagona va to'siqsiz turizm makonini yaratishga qaratilgan. MDH bilan kelishuvlarda ko'p tomonlama hamkorlikka o'tish, pirovardida MDHni dunyodagi eng jozibador turizm hududlaridan biriga aylantirish maqsad qilingan. Bunda O'zbekiston butun makonning markaziy nuqtasi sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani diqqatga sazovor.



Qobil TURSUNOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisi o'rinbosari

O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega. Ana shu ustuvorlik va tizimli islohotlar natijasida MDH sayyohlik ekotizimining markaziy bo'g'iga aylanmoqda. Mamlakatimiz nafaqat sayyohlarni jalb etuvchi manzil,

## Mulohaza

Sanoat korxonalarining jadal rivojlanishi, transport vositalari sonining ortishi, tabiiy muhitni muhofaza qilish choralarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, chiqindilarni qayta ishlash tizimi sustligi, shuningdek, qurilish sohasining misli ko'rilmagan sur'atda kengayishi havo sifatining keskin yomonlashuviga olib kelmoqda. Bu jarayon inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, shaharlar ekologik tizimi uchun ham jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Bugungi iqtisodiy taraqqiyot sharoitida rivojlanish va ekologik muvozanat o'rtasidagi nozik uyg'unlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki barqaror iqtisodiy o'sish faqat raqamlar bilan emas, balki insonning sog'lom va xavfsiz muhitda yashash huquqi bilan ham o'lchanadi.

Ekologik muammolar barcha davlatlar qatori mamlakatimizda ham kuzatilayotir. Shu bois, havo sifatini yaxshilash, shaharlarda yashil maydonlarni kengaytirish, aholida ekologik madaniyat va bilimni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. "Toza havo" umummilliy loyihasi aynan shu vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Unda energetika va sanoat sohasidagi ekologik samaradorlikni oshirish, havoni monitoring qilish va tozalashning zamonaviy tizimlari joriy etish orqali shaharlar havo sifatini yaxshilash nazarda tutilgan.

Shuningdek, loyiha orqali qurilish sohasida ham talablar izchil kuchaytirilmoqda. Yangi yirik obyektlarni loyihalashtirish jarayonida ko'kalamzor maydonlarni saqlab qolish, chiqindilar va qurilish materiallarini samarali boshqarish, hududlarni muhofaza qilish hamda nazoratni raqamli texnologiyalar orqali kuchaytirish choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari, shaharlarda "shamol yo'laklari"ni saqlash, ekologik ekspertiza xulosalarini majburiy tartibda inobatga olish, suv va havo resurslarini boshqarish bo'yicha kompleks rejalar ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Xo'sh, qurilish sohasida "shamol yo'laklari" shahar havosi uchun qay darajada ahamiyatli? Bu savolga bir oz keyin to'xtalamiz.

Toshkent shahridagi turar joylardan birida to'rt yildan buyon yashab kelaman. Ilk bor ko'chib kelganimizda hudud ochiq, havo erkin aylanardi. Atrofda pastqam binolar, keng va ochiq maydonlar mavjud bo'lib, tabiiy muhit muayyan darajada saqlanib qolgan edi. Biroq keyingi yillarda bu hududdagi vaziyat keskin o'zgaradi. Qisqa muddatda atrofda baland qavatli bir necha binolar qad rostladi.



## zamonaviy shaharsozlik uchun muhim omil

Albatta, bu imoratlar qurilishi ortidan yuzlab oilalar vatanni bo'ldi. Qancha odamlar shu yerda ishlash, oilasini boqdi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Ilgari tabiiy shakllangan, shamol erkin harakatlanadigan yo'nalishlar endi beton devorlar orasida qolib ketdi.

Baland binolar past qavatli uylar uchun tabiiy havo oqimini to'sib, "yopiq muhit"ni yuzaga keltirmoqda. Bu esa shaharsozlikdagi ayrim qarorlarda inson manfaatlari qay darajada hisobga olinayotganiga haqida jiddiy o'ylashga undaydi.

Chunki shahar faqat binolar majmuasi emas, balki inson yashaydigan, nafas oladigan, hayot kechiradigan makondir. Agar shu makonda tabiiy muhit izdan chiqsa, demak, rivojlanish tushunchasining o'zi qayta ko'rib chiqilishi lozim. Bu holat alohida bir hududga xos emas. Bugun ko'plab shaharlarda shunga o'xshash manzarani kuzatish mumkin. Zich va tartibsiz qurilishlar natijasida tabiiy "shamol yo'laklari" qisqarib, ayrim joylarda butunlay yo'qolib bormoqda va shahar havosining tabiiy aylanishini izdan chiqarib, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, "shamol yo'laklari" shaharning o'ziga xos "nafas olish tizimi"dir. Ularning mavjudligi havo almashinuvini ta'minlaydi, issiqlik to'planishining oldini oladi, atmosferadagi zararli moddalar tarqalishini kamaytiradi. Aks holda, shahar muhitida "issiq orol" effekti yuzaga keladi. Bu holat havo haroratining oshishi, dimlikning kuchayishi va umumiy ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladi. Natijada inson salomatligi va yashash sifatiga bevosita tahdid paydo bo'ladi.

Xalqaro tajriba esa bu muammoga nisbatan aniq va amaliy yechimlar mavjudligini ko'rsatadi. Yevropaning qator davlatlarida "shamol yo'laklari"ga shaharsozlik siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Xususan, ayrim shaharlarda maxsus "shamol yo'laklari" belgilanib, ushbu hududlarda baland qavatli binolar qurilishi qat'iy tartibga solinadi yoki cheklanadi. Bu orqali shahar ichida tabiiy

havo aylanishi saqlanadi, ekologik muvozanat ta'minlanadi.

Bu tajriba zamonaviy shaharsozlikda rivojlanish faqat hajm va tezlik bilan emas, balki tabiat qonunlariga moslashish orqali barqarorlikni ta'minlash bilan ham o'lchanishi zarur.

Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, aholi zich joylashgan megapolislarda bu masalaga yanada jiddiy va ilmiy yondashuv shakllangan. Zamonaviy texnologiyalar yordamida shamol oqimi oldindan modellashtirilib, qurilish loyihalari aynan shu tahlillar asosida tasdiqlanadi. Bunday yondashuv shahar muhitini rejalashtirishda tabiiy omillarni inobatga olish qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Eng muhimi, bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samara beradi.

Chunki "shamol yo'laklari" to'g'ri tashkil etilgan hududlarda energiya sarfi sezilarli darajada kamayadi. Tabiiy shamollatish binolarni sovitishda muhim o'rin tutadi. Konditsionerlardan foydalanish ehtiyojini qisqartiradi. Oqibatda aholi xarajatini kamaytirib, umumiy energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, "shamol yo'laklari" faqat ekologik muvozanatni saqlash vositasi bo'libgina qolmay, iqtisodiy tejakorlikning amaliy mexanizmi aylanadi.

"Shamol yo'laklari" masalasi tor doiradagi arxitektura yoki qurilish muammosi emas. U jamoat salomatligi, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik bilan chambarchas bog'liq kompleks masaladir. Demak, ushbu yo'nalishdagi har bir qaror bugungi qurilish ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, kelajak avlodlar manfaatini ham hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim.

Biroq amaliyotda mazkur jihat har doim ham yetarlicha inobatga olinmayapti. Ayrim hollarda qurilish loyihalari hududning tabiiy xususiyatlarini, shamol yo'nalishlarini va havo almashinuvini yetarlicha tahlil qilmay tasdiqlanadi. Natijada bugun qurilayotgan binolar ertaga ekologik muammoga aylanishi mumkin. Chunki noto'g'ri rejalashtirilgan shahar muhitini keyinchalik to'g'rilash juda qiyin va katta xarajat talab qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQPQQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Shu bois, bugun shaharsozlik siyosatida shamol yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish, qurilish loyihalari aerodinamik tahlilni joriy etish, ochiq hududlar va yashil zonalar saqlab qolish hamda baland binolarni joylashtirishda muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Toza havo" umummilliy loyihasi bu borada muhim qadamdir.

Eng muhimi, bu masalaga munosabatni o'zgartirish zarur. "Shamol yo'laklari" shahar hayotining muhim sharti. Bugun qurilayotgan har bir bino hozirgi aholi bilan birga kelajak avlodlar hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun qurilish jarayonida qisqa muddatli manfaatlardan ko'ra uzoq muddatli barqarorlik ustuvor bo'lishi kerak.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



## TEXNIKUMLAR EKOSTIPENDIYA VA KAFOLATLANGAN AMALIYOT

Aholi orasida ekologik odatlarni shakllantirish, maxsus bilim va ko'nikmalarga ega malakali mutaxassislarni dual ta'lim shaklida tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakani oshirish iqlim o'zgarishi davrida eng dolzarb masalalarga aylanadi. Xo'sh, bu chaqiriqlarga professional darajada yechim izlaydigan mutaxassislar qayerdan yetishib chiqadi?

Prezidentimizning joriy yil 25-martdagi "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2026-2027-yillarda respublikamiz hududlarida yangi formatdagi 14 ta "yashil" texnikum tashkil etiladi. Ularda 2030-yilgacha 10 ming nafar o'rta bo'g'in kadr tayyorlanadi. "Yashil" texnikumlar ekologiya, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning asosiy markazlariga aylanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanish g'oyalari asoslangan bu ta'lim muassasalarida kelgusida ekologik mas'uliyatli mutaxassislar tayyorlanadi. Bu tashabbus "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilmoqda va yurtimizning atrof-muhitni modernizatsiya qilishga strategik yo'nalishini aks ettiradi.

Ayni paytda "yashil iqtisodiyot" sohasida kadrlar yetishmovchiligi mavjud, — deydi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi bo'lim boshlig'i Jahongir Mirzoqobulov. — Sohada o'rta bo'g'in kadrlarga ehtiyoj 52 mingni tashkil etmoqda. Prezidentimiz qarori bilan joriy yilning o'zida 5000 ta o'rta bo'g'in kadr tayyorlanishi ko'zda tutilyapti. Tashkil etilayotgan "yashil" texnikumlar o'quvchilari tabiat qo'riqxonalarini, o'rmon xo'jaliklari va botanika bog'larida real amaliyot o'taydi. Ekologiya qo'mitasi va Fanlar akademiyasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar, o'rmon xo'jaliklari, gidrometeorologiya stansiyalari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindi poligonlari, botanika va dendrologiya bog'lari, hayvonot bog'lari, Botanika va Zoologiya institutlarining amaliyot uchastkalarida ekologik nazorat, monitoring hamda tahlil ishlari olib boriladi. Mamlakatimizning turli hududlarida havo, suv va tuproq holatini o'rganib, natijalar qayta ishlanadi.

Ekologik muammolarni erta bosqichda aniqlash, tegishli choralar ko'rish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik talablarga rioya etish, bir so'z bilan aytganda, aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishda o'rta bo'g'in kadrlarning o'rni alohida bo'lishi shubhasiz.

2026/2027-o'quv yilidan boshlab Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)ga Markaziy Osiyo davlatlari hamda boshqa xorijiy mamlakatlardan kamida 50 nafar talabani jalb qilish hamda 2027/2028-o'quv yilida mazkur ko'rsatkichni kamida ikki baravar oshirish nazarda tutilgan. Oliy ta'limning yuqori bosqichlarida amaliy mashg'ulotlar ulushi 80 foizga yetadi. O'quvchilar ekologik bilimlarni real sharoitda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Yillarda haqiqiy ekologik muammolar bilan

to'qnashib, ularni hal etish yo'llarini o'rganadi. Qolaversa, kasbiy madaniyat, intizom va mas'uliyat hissi shakllanadi. Bu ekologiya sohasida nafaqat bilim, balki amaliyotga tayyor, mustaqil ishlay oladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi.

Sohada hudud yoki vazifa ehtiyojiga mos kadr tayyorlashning ahamiyati katta, — deydi Jahongir Mirzoqobulov. — Manzilli kadrlar tayyorlanishi aniq muammolarga munosib yechim topishda asqatadi. "Yashil" texnikumlarda tahlil olgan yigit-qizlar amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan holda ish boshlaydi. Tayyor, ixtisoslashgan kadr vazifasini yaxshi biladi va unda mas'uliyat hissi yuqori bo'ladi.

Qarorga asosan, ingliz tilini yaxshi bilgan (B2 darajasi) va yuqori baholarga o'qigan bitiruvchilar "Green University"ning 2-bosqichidan o'qishni davom ettirishi mumkin. Mashg'ulotlar universitet tomonidan ishlab chiqiladigan va Kasbiy ta'lim agentligi tasdiqlaydigan ta'lim dasturlari asosida tashkil etilishi ko'zda tutilmoqda. Universitet hamda "yashil" texnikumlar ta'lim tizimi uzviyligi ta'minlanishi xalqaro talablarga mos, raqobatbardosh zamonaviy kadrlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Ilg'or ta'lim tajribalari asosida amaliyotga yo'naltirilgan va integratsiyalashgan o'quv dasturlari ekologik ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Texnikumlarning eng iqtidorli o'quvchilari uchun maxsus ekostipendiya joriy qilinadi va ularga har oy kamida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorida stipendiya beriladi.

Bu o'quvchilarni rag'batlantiradi. Rag'bat bor joyda esa o'sish bo'ladi, — deydi J. Mirzoqobulov. — Talabalarning o'qishga qiziqishlarini oshirib, o'z ustida ko'proq ishlashga undaydi. Atrof-muhit muammolari haqida xabardorlik ortadi, innovatsion loyihalarni yangi yechimlar yuzaga keladi, samaradorlik oshadi.

Qarorda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tizimli ravishda ilmiy faoliyatga oid dasturlar doirasida har yili ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi yo'nalishida innovatsion, amaliy va fundamental loyihalar tanlovlari o'tkazilishi belgilangan. Bu tanlovlar bilim, tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarni kashf etadi. Yangi usullar, ilmiy ishlanmalar va tahlillarni qo'llash imkoni paydo bo'ladi.

Bu tashabbus yoshlarimiz uchun yangi ish o'rinlari va zamonaviy kasblarni egallash imkoniyatini yaratadi. Eng muhimi, yurtimiz ekologiyasini asrab-avaylaydigan, tabiat bilan uyg'unlikda ishlay oladigan yangi avlod mutaxassislarini yetishtirib beradi.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Уй-музейларда



# O'TGAN KUNLARNING MILLIY DARDI BILAN BUNYOD BO'LGAN XONADON

Ular aksariyati adib va uning oilasiga tegishli. Qodiriy o'tirib ijod qilgan tut daraxtidan yasalgan tancha (sandal), qo'l yuvgan oftoaba, hujjatlar saqlangan temir sandiq, "Mushtum" jurnalidagi faoliyati davomida kiygan kostyum-shim, bir qancha yaktak, kalish, kiyim ilgich sifatida foydalanilgan ho'kiz shoxi, rafiqasi Rahbarisa aya kelinlikda olib kelgan sarpo sandig'i, idish buyumlar avlodlari tomonidan tabarruk xazinadek saqlab kelinmoqda. Yozuvchining oilasi bilan tushgan bir dona surati esa bebaho eksponatdir.

2019-yili hovlida yozuvchining haykali o'rnatildi. Iste'dodli haykaltarosh Bahrom Norboyev ijodiga mansub ushbu asarda Abdulla Qodiriyning bir qo'lida kitob ushlagan holda o'tirgani tasvirlangan.

Bundan tashqari, oldin yozuvchining o'txonasi bo'lgan hududlar o'rni kumushxonaga, konferensiya va ko'rgazma zallari qurildi. "O'tkan kunlar" romani qahramoni Kumush Marg'ilonning Toshkentga kelgan ramziy arava monumenti ham o'rnatildi.

Muzey bo'lmagan oldin ham bu yerga juda ko'p odamlar tashrif buyurgan. Hovli qarovsiz bo'lsa-da, Qodiriy asarlarini o'qib, qiziqib, qidirib kelishgan. Bugungi kunda esa mehmonlar soni ancha ortdi. Ochiq, muzey tashkil etilishini butun Markaziy Osiyo ziyolilari kutayotgan edi. Hozir maktab o'quvchilaridan tortib, keksa kitobxonlarga qalib, ziyorat qilishadi. Nafaqat qo'shni davlatlar, balki Yevropadan ham tashrif buyurishadi, — deydi Abdulla Qodiriy uy-muzeyi kuzatuvchisi Nilufar Ortiqova.

Mana bu arava yonidagi ikki tabaqali darvozadan hovliga kirilgan. Shu yillar davomida uni ta'mirlab, o'z o'rniga qo'ydi. Endi buning yana bir qir'iqi jihati ham borki, odami o'yantiradi, ko'ngillari o'ksitadi. 1937-yil 31-avgust kuni oxirgi marta Qodiriy shu darvozadan chiqib ketgan, qaytmagan... — deya xotirlaydi Xondamir Qodiriy. — Aravaga e'tibor bering. Ishonasizmi, bu kompozitsiyani biz "O'tkan kunlar" kitobida keltirilgan kichkina bir parchadan oldik. Toshkentga qudalar kelgandan keyin ayollar orasida bir subhat bo'ladi. "Charchamadinglarni yo'lda?" deya so'ralganda,



bilan boshlanadi. Bu joy hozir ham mavjud bo'lib, Marg'ilon shahri markazidan Go'ra'val tarafga ketishdadi. Kumushbining mahallasi ham shu yerdan. Otabek bilan Kumushni uchrashirgan ariq hali ham bor deya taxmin qilinadi. Shu ko'chadan hozirga yuqoriga yurilsa, asarda tasvirlangan jome masjidi va poyabzal rastasiga chiqiladi. Ilgari bu yerdan juda katta hunarmandlar, kosiblar bozori bo'lgan, hozir esa ulgurji savdo bozoriga aylangan. Garchi Marg'ilonning tarixiy darvozalari aslida saqlanmagan bo'lsa-da, nomlari shunday qolgan: Toshloq, Qo'qon, Yormozor...

Asarda bir necha marta ta'kidlangan Xo'ja Ma'oz mozori hozir ham mavjud. Bu mozor ziyoratgoh joy bo'lib, Qodiriyning o'zi ham bu mozorda tabaq qilgan ekan.

Habibullo Qodiriyning xotira kitoblarida bunday voqea bor: "Men Marg'ilon ko'chalarida yurib, karvonsaroy, eski o'rda o'rinarini belgiladim. Mirzakarim quydor, Usta Alim, Homid, Sodiqilar uyini taxminladim va Xo'ja Ma'ozda bir kecha tunadim, — derdi dadam ba'zan hushi kelganda, bizning roman hajdagi mayda-chuyda ezma savollarnimga javob berib. — Masjid ayvonida uzoq o'tirdim. Hammayoq qorong'i; odam degan gap yo'q... Bora-bora uyqu bosdi. Uxlab olmoqchi bo'ldim. Biroq yotib ko'z yuma olmadim. Chunki tinovchilar keltirganmi, masjidda qandala ko'p ekan, chaqarib bezor qildi. Hovliga tushub yotay desam, turli hasharotlardan xavf qildim... Nihoyat tobuxonaq kirib yotdim..."

Qodiriy asardagi har bir holatni muqammal tasvirlashga qanchalik e'tibor bergani haqida "Yozuvchi o'z ishi to'g'risida" nomli maqolasida yana bunday misol keltiradi: "Asarni yozish chog'ida Marg'ilon borganimda, bir ko'chadan o'taturib, namozshom mahallasi, dog' qilingan yotgan zig'iryoq'ning hidi burmiga urildi, men buni esda tutib qolishga tirishdim. "O'tkan kunlar"ning bir joyiga shu kichkina detal kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham odam ishonarli bo'lib chiqqani esimdami..."

## Qodiriy shiyponi

Qodiriy davrida hovlilar ichkari-tashqari hovliga bo'lingan. Tashqi hovlida erkaklar kelgan mehmonni kutib-kuzatgan bo'lsa, ichki hovlida mehmonlarning ko'zidan nari bo'lgan oila yashagan. Shiypon tashqari hovlida qurilgan. Bu yerdan yozuvchi o'ziga alohida bir ijodxonasi qurilgan va kelgan mehmonlarni shu yerdan kutgan. Ushbu shiyponda So'fizoda, Oybek, G'afur G'ulom, Sadridin Ayniy, Abdulla Qahhor, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Hamid Olimjon, Yunus Rajabiy kabi yozuvchi va san'atkorlarning qizg'in subhatlari, ijodiy bahslari kechgan. Bu haqda batafsil ma'lumotlar Habibullo Qodiriyning adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan eng muhim manbalardan biri — "O'tam haqida" kitobida uchraydi.

"Ikki qavatli shiyponning pastki qismidagi xonada Qodiriy bobomiz o'tirgan. Albatta, biz u kishini ko'rmasamiz, lekin o'tirgan joyidan bilamizki, u yerda bobomning bir salobati ruhi turibdi. O'zida shunday bir kechinma borki, shu yoshga kirib, hali ham shu joyning to'riga o'tirishga jur'at qilolmayman. Buyam bir hurmat, ehtirom belgisidir balki, — deya eslaydi Xondamir Qodiriy. — Xona chetidagi durtoran bilish mumkinki, u sozni juda ham yaxshi ko'rgan. O'zi chalmagan bo'lsa-da, nafs ohanglari sezish qobiliyati musiqaga bo'lgan e'tiborini bir zum pasaytirmagan. Yana bu yerda yozuvchining to'n va shimi, yaktak ko'ylagi saqlanadi, ko'rishingiz mumkin, yonida ayollarning 100 yil oldin kiygan parani va boshqa liboslari ham bor. Mana bu joy namozning esa o'ziga yarasha qiziq tarixi bor.

Bu turkman joynamozi hisoblanadi. Turkmanistonda to'qilsa-da, asosan, Buxoro bozorida sotilgan. Buni namozlik ham deydiladi. Unga Nil suvidan tayyorlangan bo'yoqda ishlov berilgan. Nil daryosi ko'pirgan chog' o'sha ko'pigidan olib bo'yoq qilinlar ekan.

Ushbu joy namozning yana bir xususiyati tabiiy mahsulot ekanida. Negaki, mana, misol uchun, sintetik material bilan junni yonmayoq qo'yib, ustida chang ko'tarsangiz, sintetik material o'ziga singirmaydi, jun esa o'ziga tortadi. Xonadagi havoni tozalaydi. Aytmoqchimaniki, shunday mayda detalla ham e'tibor berishganki, shu joynamoz hovlidagi tozalik, ozodalikdan dalolat beradi."

— Ichki hovlidagi imoratning pastki qismida yozuvchining onasi — Josiyat buviga alohida xona qilingan. Xonalararo egilib kirs bo'ladingiz torroq yo'lak tashrif buyuruvchilarning e'tiborini doimo tortadi. Ona oldiga ta'zim bajo keltirib, egilib kirish kerak, degan maqsadda yo'lakcha atay past qilib qurilgan. Onasi betob bo'lgani bois, bu unni Qodiriy tabiblar bilan maslahatlashgan holda qurdirgan va xonani loviya poyasi bilan suvoq qilgani aytiladi, — deydi Nilufar Ortiqova. — Ikkinchi qavatdagi xonalarda kattagina tikuv mashinasi bor. Ayollarimiz bir hunar egasi bo'lsin, ham kiyim-kechaklar o'zimizdan chiqsin, degan maqsadda ishlatilgan. Shu bahona ayollar ham hunar o'rganagan, ham o'z ta'minotini ta'minlagan.

## Jonfido o'g'il va qaynotasiga salom berish nasib etmagan kelin

Adibning 1918-yili tug'ilgan to'ng'ich o'g'li Habibulla Qodiriy padari buzruvori hibsga olinganida 20 yoshda, tibbiyot instituti tolibi edi. Otasining hayoti, ijodi, qismatiga oid jamiki voqea-hodisadan xabardor edi. Afuski, uning ham gardaniga otanung kuni tushadi — 1945-yil 28-mayda hibsga olinib, "aksilinqilobiy yoshlar tashkilotining rahbari bo'lgan, otasining taqsiqlangan asarlarini uyida saqlagan, sovet hukumatiga qarshi agitatsiya ishlarini olib borgan" degan ayblovlar bilan 10 yil qamoq va surgun azoblarini boshdan kechiradi.

U yoddan qaytgach, chala qolgan ta'limini davom ettiradi. Tugatgach, poytaxtdagi ma'lumotlar Habibullo Qodiriyning adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan eng muhim manbalardan biri — "O'tam haqida" kitobida uchraydi.

haqdagi xotiralarni yig'ib, "Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida", o'z qalamiga mansub "O'tam haqida" xotiralar kitoblarini yozadi. Umri poyonida og'ir xasta bo'lishiga qaramay, "Qodiriyning so'ngi kunlari" xotira-qissasi ustida ishladi. Abdulla Qodiriyning eng tahlikali kunlari haqidagi fig'onlarga to'la nasriy hujjatli dostonini oxiriga yetkazdi, she'r, drama, hajviya, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalarini qidirib topib, nashrga tayyorladi. Oltmishga yaqin adabiy taxallusni aniqlab, 1969-yili "Kichik asarlar" kitobini chop ettirdi.

Habibulla Qodiriydek o'g'lining ana shunday zahmatli ishlari tufayli biz va kelajak avlod mufassal adabiyotlar bilan tanishish baxtiga muayassar bo'lib turibmiz. Shuni ham unutmashimiz kerakki, Abdulla Qodiriy nafaqat o'g'ildan omadi chopgan, qolaversa, qo'lidan bir piyola choy ichmagan bo'lsa-da, kelindan ham yolg'igan edi. Ijodiy merosi tiklanishida o'g'li Habibullaning hissasi qancha bo'lsa, kelini — Habibulla Qodiriyning umr yo'lodshi Mukambar Miryohov qizining mehmati ham beqiyosdir.

Nurxon Elmurzayevaning "Abdulla Qodiriyga salom berolmagan kelin" maqolasida Habibulla Qodiriyning qizi Manzuma aya o'sha davrlarni aniq-tiniqu eslaydi: "O'ym damdamning buyuk isha qasid qilgan maqsadini yaxshi tushunib, ijod qilishga shunday sharoit yaratib berganki, ortiqcha tiq etgan tovush bo'lmagan, hattoki oyoq uchida yurardi. Biz ham shovqin-suron qilmasdik.

Qaynona-qaynotani ko'rmasan bo'lsa-da, ularga sadoqat bilan yashadi. "O'tkan kunlar"ni har kuni qo'lariga olib, o'qib, o'pard. Ayrimlar o'pmang, bu muqaddas kitobmas-ku deb e'tiroz bildirishsa, yo'q, bu ulug' insonlarning kitobi, derdi. Hatto o'limidan oldin kasal bo'lib yotganidam kitobni tik qo'yib silab turardi..."

Yangi yil bayrami biznikida hech qachon nishonlanmagan. Bir kuni yig'laganman, o'smir ekanman, falonchilikda stollarni bezatib, yangi yil kutushiyati, biz-chi, desam, o'chir ovozingni degan. Esimni tanibmanki, dadam 31-dekabrda kasalxonalarida navbatchilik olib, o'sha yoqda bo'lardi. Tansiq ovqatini ham o'ym damdam ketgach qilib berardi. Sababki, Abdulla Qodiriy bobomizni 1937-yil aynan yangi yil kechasi 23:30 da, hamma bayramni kutayotgan vaqtda olib ketishgan ekan... Dadamning eng asosiy maqsadi bitta, buvanning topalgan nomini qaytadan tiklash bo'lgan. Umrining oxirigacha tish-irimoqlari bilan, gard yuqumagan holatda shunga intildi va erishdi."

Habibulla Qodiriydek jonfido o'g'il va Mukambar onaning tarbiyasini ko'rgan zurriyotlari ham Qodiriyning sha'ni, qadrini ulug'lab, shunga mos bo'lishga intildi.

Habibulla Qodiriy ikki o'g'li — Xondamir va Sherkonni yoniga olib, ularni ham qodiriyshunos qilib tarbiyalagan edi. Xondamir Qodiriy otasi rahbarligida qissa, hajviya, ocherk, maqolalar va felyetonlar to'plami — "G'irvonlik Mallavoy" hamda "O'tkan kunlar"ning 1926-yilgi nashri asosida asl to'la nusxasini, "Mehrobdan chayon"ning 1929-yildagi kitob variantiga asoslangan nashrini tayyorlab, yaxlit kitob holda nashrdan chiqardi. She'rilar, hikoyalar, sahna asarlari, hangoma, felyeton va maqolalardan iborat nisbatan eng to'liq hisoblangan salmoqli majmuani "Diyori baki" nomi ostida chop ettirdi. U bobosi merosi barobarida padari buzruvori asrab-avaylab, asarlarini qayta nashrga tayyorladi — "O'tamdan xotira" ana shu mehnat mahsulidir. Kichik o'g'il Sherkon Qodiriy ham bu 'qaylag' ishda akasiga kamarastalik ko'rsatib, "37-xonadon" kitobini chop etdi. Abdulla Qodiriy uy-muzeyidagi eksponatlarining soni yildan yilga boyib borayotgan bunday ezuq harakat hanzu davom etayotganidan darak beradi.

— Bu yerga nafaqat ekskursion, balki mutolaa uchun ham kelishingiz mumkin. 2019-yil uy-muzeyiga qo'shimcha qurilgan kutubxona, konferensiya va ko'rgazma zallari sizga shunday imkoniyat tuhfa etadi. Mo'jaz kutubxonada 20 mingga yaqin kitob bor, — deydi Nilufar Ortiqova. — Yosh avlod tasavvurida ma'rifatarbut insonlarning yashovsini jonlantirish, buyuk adiblarimiz va ularning shaxsiyati haqida tushuncha hosil qilish biz uchun sharaflari vazifa. Hovlini shunchaki uy-muzey deiyish xato, bu yer adibning yaxshi va yomon xotiralari maskani, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" tug'ilgan dargoh. Bu kabi qutlug' joylar har doim e'tibor markazida bo'lishi va abadiylashtirilishi kerak.

**Naqshinkor, baland yog'och ustunli yo'lak uzra uy-muzeyni ohista ko'zdan kechirar ekansiz, hovli devorlarida o'zbek va jahon adiblarining Qodiriy ijodiga oid bitilgan fikrlarini o'qib, yozuvchi nainki yurtimiz, balki xalqaro miqyosda ham alohida e'tirof etilgan ijodkor ekanini yana bir karra anglaysiz.**



Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ko'nglingizdagi g'ashlik bo'sag'a hatlab uyga kirganingizdayoq tumandek tarqaganini sezmaysiz. Namozshom payti hadsiz osmonning bir chetidan ro'dapo bulut sudralib kelarkan, devorlariga butun bir asming'xo'rsining'ini singdirib olgan shiypon soyasida suvga tomgan siyoh kabi neder havoda ohista yoyilladiyu, shu zaylda odam shaklida yig'iladi. Ushbu o'ra bo'y, xushbichim, qorachadan kelgan va tim qora ko'zlarida mubham bir ifoda qotgan, kiyimlari esa o'ziga yarashliqig', parishonhol yigit yonginangizdan o'tarkan, sizni payqamaydi. Qo'sh tabaqali darvoza oldida bir zum to'xtab qoladi — ikkilanadi.

Ha, tizingsiz xayvollar o'z og'ushiga olgan bu kishi — elning sevimli yozuvchisi Abdulla Qodiriy. U yon-veridan o'tayotgan tanish-notanishlarning bosh igr'aganini bog' ilg'aydi, gohida yo'q. Negadir bugun diltang. Yo'q, xayrli ishlarning bari maromida. "O'tkan kunlar" qo'lma-qo'l o'qilmoqda, antiqa felyetonlar, hajviyalar peshmash "Mushtum" yuzini ko'rmoqda. Lekin bularning hammasi uni hali to'la qanoatlanmish, xayolida charx urayotgan qiyofalar va voqealar tizmasi uni tuganmas beoromlik girdobiga tortib ketardi. Qolaversa, davr barcha ziddiyatlarni yuzaga chiqargan, bu ziddiyatlarni hal etishda esa mavqelarni, maslaklarni belgilash muhim edi — yangi hayot sari yo'l ko'p og'irliklar ustidan solinayotgandir. Qodiriy ana shunday fikrlar og'ushida uyidan qanday chiqib ketganini bilmay qoladi. Shu bilan qaytib kelmaydi...

## Markaziy Osiyo ziyolilari orzusi

Abdulla Qodiriyning otasi Qodirmuhammad Eski Jo'va mahallasi Xo'ja ko'chasida yashovchi Hojimuhammad boboning 1822-yilda tug'ilgan ikkinchi o'g'li edi. Qodirmuhammad baquvvat, serg'ayrat, shijoatli va dunyo ko'rgan kishi bo'lib, Eski Jo'va bozorida baqqollik do'koni ochib, ipak, idish-tovoq, choy kabi mollar bilan savdo qilgan. Qodirmuhammad 1870-yilgacha savdoda, keyin Eshonguzar mahallasidan yer olib bog'bonlik bilan shug'ullangan. To'rt marta uylangan. Bunga farzandsizlik sabab bo'lgan. Qodirmuhammad to'rtinchi bor Josiyat bibiga uylangan. Ular 1879-yilda o'g'il ko'rib, Rahimberdi deb ism qo'ygan. Ammo undan keyingi tug'ilgan o'n ikki farzand sababsiz nobud bo'lavergan. Bu holdan irim qilgan Qodirmuhammad Eski Jo'vadagi hovlisini sotib, hozirgi Samarqand darvoza mahallasidagi yeriga ko'chib o'tadi. Mana shu maskanda Abdulla Qodiriy dunyoga keladi. Undan so'ng 1897-yilda Abdullaning ukasi Qudratilla tug'iladi. Qodirmuhammad uzoq umr ko'rib, 1924-yil 5-aprelda 103 yoshda vafot etadi.

Qodirmuhammadning ilmi bo'lmasa-da, farzandlarining ta'lim olishiga katta e'tibor bergan. U: "O'zimni xatim yo'q-da, bo'lmasa hammangni barmog'imda o'ynatardim", degan so'zlarni ko'p takrorlagan. Bog'da mehnatning ko'pligiga qaramay, o'g'li Abdullani maktabga bergan. Akasi Rahimberdining esa o'qishga unchalik qiziqishi bo'lmagan. Abdulla Qodiriy dastlab 1904-1906-yillarda musulmon maktabda o'qigan.

Dastlabki savodini Zangjota mahallasidagi mulla Olim va mulla Ziyov domlalaridan olgan. Qodirmuhammadning uch o'g'li ham shu domlalar qo'lida savod chiqargan. Qodiriy ushbu muallimlardan tashqari Miral mahallasidagi Yusufxon domla va Chorsuga yaqin joyda joylashgan mulla G'ulom ismli muallimlardan ta'lim olgan. So'ng 1908-1912-yillarda rus-tuzem maktabida o'qigan.

Ilgari markazda yashagan odamlarning shahar tashqarisida bog'i bo'lgan. Bu hudud bobomning bog'i hisoblangan. Qodir bobodan besh gektarga yaqin yer qolgan. Shuni uch aka-uka o'rtada teng taqsimlagan, ikki gektari Abdulla Qodiriyga nasib qolgan. O'ttizinchi yillarda shu joylarni o'z didi va ko'nglidagidek obod etib, chiroyli bog' yaratgan. O'z davrida bu go'zal bog' "Abdulla Qodiriyning bog'i", "Qodiriy shiyponi" degan turli nomlar bilan tanilgan. Keyinchalik dala hovli maydoni qisqarib boraverdi. Boisi, sovet davrida yirik yer egalarni sindirish uchun atay katta-katta soliqlar qo'yilgan, uni to'lay olmagani esa yerining qanchadir qismini sotishga majbur bo'lgan, — deya eslaydi Abdulla Qodiriy uy-muzeyi direktori Xondamir Qodiriy.

Ushbu fayzli hovlida Qodiriy yashagan ikki qavatli uy va shiypon bo'lib, uni yozuvchining o'zi 1928-1929-yillarda ustalar yordamida qurib bitkazgan. Adib bu xonadonda 1937-yilgacha, ya'ni o'sha mash'um kunga qadar yashagan. Abdulla Qodiriy vafotidan keyin uning farzandlari, xususan, o'g'li Habibulla Qodiriy ham unni muzeyga aylantirish tashabbusi bilan ancha yil yugurdi, biroq o'sha davrning bizga nomu'lah bahonalari bilan niyat amalga oshmadi. Xondamir Qodiriy ham muzey masalasida ko'p yillar davomida turli tashkilotlarga murojaat qildi. Nihoyat, 2019-yili davlatimiz rahbarining qarori bilan muhtasham uy-muzey tashkil etildi.

Bugungi kunda umumiy maydoni 70 sotix bo'lgan uy-muzey 4 ta xona, alohida yozgi shiypon va uning birinchi qavatidagi bitta xonadan iborat. Muzeyda jami 500 ga yaqin eksponat mavjud.



"Charchamadik, bahorda hammayoq yashil bo'ldi, sekin-sekin dam olib keldik. 10 kunlik yo'l ekan, biz 12 kunda keldik", deyiladi. Asardagi ana shu epizodni oldik-da, Qo'ngondan yetti avlodi aravazoz bo'lgan ustamlari topdik. Ularga aravaning 100 yil oldingi ko'rinishini qilishini, ortiqcha hasham kerakmasligini tushuntirdik. Chunki asardagi o'sha ruh predmetga ko'chishi kerak edi, menimcha, shunday bo'ldi ham.

## Xo'ja Ma'ozda bir kecha

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: "O'tkan kunlar"dagi tarixiy joylar haqiqiyimi? Asar voqealari asosan ikki shaharda: Toshkent va Marg'ilon bo'lib o'tadi. Asar Marg'ilonidagi markaziy bozor yaqinidagi musofirlar saroyi tasviri

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-446. 30646 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev  
Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy  
O'za yakuni — 02:05